KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH VA IQTISODIY O'SISHDAGI AHAMIYATI

Turg'unmirzayev Azmiddin Shamsitdin o'g'li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali
A.Turgunmirzayev@kiut.uz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kichik biznes va tadbirkorlikning aholi bandligini ta'minlash hamda iqtisodiy o'sishdagi ahamiyati yoritilgan. Unda kichik biznes subyektlarining yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish va raqobat muhitini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish va xizmatlar hajmini kengaytirish hamda hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Maqolada tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish va bandlikni ta'minlashning iqtisodiy o'sish bilan o'zaro bog'liqligi asoslangan. Tadqiqot natijalari kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini oshirish hamda mehnat bozoridagi imkoniyatlarni kengaytirish barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *kichik biznes, tadbirkorlik, aholi bandligi, yangi ish o'rinlari, iqtisodiy o'sish, mehnat bozori, aholi daromadlari, tadbirkorlik faoliyati, raqobat muhiti, iqtisodiy rivojlanish.*

Аннотация. *В статье исследуется значение малого бизнеса и предпринимательства в обеспечении занятости населения и стимулировании экономического роста. Раскрывается роль субъектов малого бизнеса в создании новых рабочих мест, повышении доходов населения, эффективном использовании трудовых ресурсов и формировании конкурентной среды в экономике. Также анализируется влияние предпринимательской активности на инвестиции, объемы производства, развитие сферы услуг и социально-экономическое развитие регионов. В статье обоснована взаимосвязь между поддержкой малого бизнеса и предпринимательства, повышением уровня занятости населения и обеспечением экономического роста. Результаты исследования показывают, что развитие малого бизнеса, создание благоприятной экономической среды для субъектов предпринимательства и*

усиление их роли на рынке труда являются важными факторами обеспечения устойчивого экономического развития.

Ключевые слова: *малый бизнес, предпринимательство, занятость населения, рабочие места, экономический рост, рынок труда, доходы населения, предпринимательская активность, конкурентная среда, экономическое развитие.*

Abstract. *This article examines the importance of small business and entrepreneurship in ensuring employment and promoting economic growth. It highlights the role of small business entities in creating new jobs, increasing household incomes, improving the efficient use of labor resources, and fostering a competitive economic environment. The study also analyzes the impact of entrepreneurial activity on investment, production, the development of the service sector, and regional socio-economic development. The article substantiates the relationship between supporting small businesses and entrepreneurship, increasing employment, and promoting economic growth. The findings indicate that the development of small businesses, the creation of a favorable economic environment for entrepreneurs, and strengthening their role in the labor market are important factors in ensuring sustainable economic development.*

Keywords: *small business, entrepreneurship, employment, job creation, economic growth, labor market, household income, entrepreneurial activity, competitive environment, economic development.*

Mamlakatimizda barpo etilayotgan va bozor iqtisodiy tamoyillariga tayanuvchi yangi jamiyatning bosh maqsadi - inson uchun munosib turmush sharoitlarini ta’minlash, hech kimdan kam bo‘lmagan hayot kechirish darajasiga erishishdan iboratdir.

O‘zbekistonda mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va yuksak tarakqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo‘tttilitttning muhim manbai bo‘lib hisoblanadi. Bu masalaning dolzarbligi shundaki, mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolar butun aholining salmoqli qismini tashkil etadi, ularning soni yildan-yil ko‘payib bormoqda.

Jahon tajribasida bu kabi masalalarning yechimi va aholining ish bilan bandligini kengaytirish imkoniyati ko‘p jihatdan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga bog‘liq.

Mamlakatimizda kichik bines va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy taraqqiyotda alohida o‘rin egallaydi. Bugungi kunda bu sohani rivojlantirmasdan turib

iqtisodiyotimizning kelajagini ta’minlay olmaymiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirishda, aholini ish bilan ta’minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda muhim omillardan biri hisoblanadi hamda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori hisoblangan mulkdorlar sinfining, shakllanishi va mustahkamlanishini ta’minlaydi. Shuningdek, bu soha jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizni taraqqiyot yo‘lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda. ”Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o‘rni tobora mustaxkamlanib borayotganining o‘zi iqtisodiyotimizning tarkibida bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlardan dalolat beradi. Faqatgina o‘tgan 2025-yilda O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik sohasi iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil davomida mamlakatimizda **82 386 ta yangi kichik korxona va mikrofirma** tashkil etilgan. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi 923,5 trln so‘mni tashkil etib, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi **52,2 foiz**ga yetgan. Shuningdek, iqtisodiyotda jami band bo‘lgan aholining **74,9 foizi** kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Mazkur ko‘rsatkichlar kichik biznes va tadbirkorlikning yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi bandligini ta’minlash hamda mamlakat iqtisodiy o‘sishida muhim o‘rin tutayotganini ko‘rsatadi.

Hozirgi murakkab o‘tish davrida oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri - aholining ish bilan bandlik ko‘rsatkichlarini yana ham oshirishdan iboratdir, mamlakatimizda vujudga kelgan demografik va ijtimoiy vaziyat, eng avvalo, aholi sonining hamda ishga joylashishga muhtoj bo‘lgan fuqarolar

sonining muntazam ko‘payib borayotgani, ishga yaroqli aholining qishloq va shaharda, mamlakat regionlarida nomutanosib taqsimlanganligi, aholi tarkibida yoshlar hissasining salmoqli ekanligi va boshqa ijtimoiy- iqtisodiy omillar bu vazifaning dolzarbligini belgilaydi.

Yuqorida keltirilgan muammolar kishilik jamiyati rivojlanishining barcha bosqichlarida muntazam dolzarblik kasb etgan va ularni hal etish iqtisodchi olimlarning diqqat e’tiborida bo‘lib kelgan.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekistonda ish bilan bandlik hamda uning tashkil qiluvchilari muammosi ham nazariy, ham amaliy jihatlarda yangicha ma’no kasb etadi. Mehnat bozori ish bilan bandlikni tartibga solishda faol o‘rinni egallaydi. Mehnat bozorida asosiy milliy resurs - ishchi kuchi shakllanadi hamda korxonalar, tarmoqlar va mintaqalar bo‘yicha taqsimlanadi.

Aholini ish bilan ta’minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri - uning mehnat sohasi va u bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish yo‘llarini ochib beradi. Ish bilan bandlik odamlar ish joylari qayerdaligidan qati nazar, ijtimoiy foydali mehnatda qatnashish yuzasidan o‘zaro kirishadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardir. Ish bilan bandlik munosabatlari, mehnatga layoqatli odamlarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko‘rsatadi. Biroq ish bilan bandlik toifasi faqat iqtisodiy komponent bilan cheklanmaydi. Ish bilan bandlik, avvalo, ijtimoiy munosabatlardir, ya’ni odamlarning jamiyat ichidagi munosabatlaridir, shu bois qandaydir azaliy, bevosita yuzaga kelgan hodisa sifatidagi ijtimoiylik ularning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Ish bilan bandlikni ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida quyidagicha ta’riflash mumkin: **“Ish bilan bandlik”** - fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan o‘z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan, ularga ish haqi yoki mehnat daromadi keltiradigan faoliyatdir.

Ma’lumki, mehnat bozorida ishchi kuchiga bo‘lgan talab, uning taklifiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillar ta’sirida ishchi kuchiga talab va uning taklifi nisbatan o‘zgarib turadi (1.1-jadval).

Ish bilan bandlik masalalarini ko‘rib chiqayotganda mehnat va ish bilan bandlik o‘rtasidagi aniq farqni ajrata bilish kerak. **Mehnat** - insonning o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan faoliyati bo‘lib, harakatlarni anglatganligi, kuch-quvvat sarflanishi, natijadorlik, ijtimoiy foydalilik va xokazolar shular jumlasiga kiradi. Mehnat vaqt xususiyatiga ega, u bo‘linadi va dam olish bilan almashinib turadi. Mehnat - ishchi kuchini ishlab chiqarishda ishlatish jarayonidir. Ish bilan bandlik insonning mehnat qilish munosabati bilan va mehnat sohasidagi ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq holda kechadigan ijtimoiy rivojlanishning muhim tomonlaridan biridir. Mehnatdan farqli o‘laroq, ish bilan bandlikni odamlarning aniq ish joyidagi amaliy faoliyatiga tenglashtirib bo‘lmaydi.

1.1-jadval

Mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va uning taklifiga ta’sir etuvchi omillar

	Omillar
Mehnat bozori	- aholi soni, yoshi va jinsining salmog‘idagi o‘zgarishlar; - qo‘shimcha. ishchi kuchini ishlab chiqarishga jalb etish mezoni; - ish bilan bandlikdagi tarmoq va hududiy o‘zgarishlar;.
Ishchi kuchiga	- Respublika va viloyatning iktisodiy rivojlanganlik

bo‘lgan talab bo‘yicha	darajasi; - ishlab chiqaruvchi kuchlarning hududiy joylashuvi; - ishlab chiqarish hajmiga, uning o‘sish sur’atiga; iqtisodiy faoliyatdagi umumiy shart-sharoitlar (ish beruvchining daromad darajasi, ish o‘rinlarini yaratishdagi imtiyozlar).
Ishchi kuchi taklif bo‘yicha	- demografik (tug‘ilish va o‘lim darajasi, ishga yaroqli aholining o‘sish sur’ati, aholining jinsiy tarkibi); - migratsiya (aholi va mehnat migratsiyasi); - ijtimoiy-iqtisodiy (ish haqi darajasi, nafaqa ta’mi-noti holati, ishsizlik darajasi); davlat faoliyati (bandlikni tartibga solish).

Ish bilan bandlik mehnatga layoqatli odamlarning ish bilan qanday ta’minlanganligini ko‘rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, odamni ish bilan band hisoblash uchun u biron-bir jamoaning a’zosi bo‘lishi yoki o‘z ishini yaratishi kerak. Ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim mezoni ish bilan bandlikka bo‘lgan munosabatdir. Ish bilan bandlik kompleks ijtimoiy siyosatning ajralmas qismi deb qaraladi. Ish bilan bandlik muammolarining ijtimoiyligi uning avval, boshdan insonga, uning manfaatlariga va mehnat sohasidagi ehtiyojlariga qaratilg‘anligi bilan belgilanadi.

Ish bilan bandlikning eng kam deganda to‘rt ijtimoiy jihatini (aspektini) hisobga olish kerak bo‘ladi:

a) ish bilan bandlik insonning Konstitutsiyada belgilab berilgan eng muhim huquqi - mehnat huquqi bilan mustahkam bog‘liqligidir;

b) turmush darajasini va munosib hayot kechirish shart-sharoitlarini shakllantirishda ish bilan bandlik hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Aynan ish bilan bandlik, mehnat faolligini oshirish hozirgi vaqtda mehnatga qobiliyatli fuqarolar va ular oilalarining turmush darajasini oshirishning eng muhim kafolatidir;

v) har kimning va umuman jamiyat farovonligining negizi bo‘lgan yuqori unumli mehnatning yangi sababini shakllantirish;

g) aynan mehnat faoliyati insonni o‘zgartiradi, uning kasbiy imkoniyatlarini ochib beradi va ko‘paytiradi, shaxsning rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Ish bilan bandlikning eng kam deganda to‘rt ijtimoiy jihatini (aspektini) hisobga olish kerak bo‘ladi:

a) ish bilan bandlik insonning Konstitutsiyada belgilab berilgan eng muhim huquqi - mehnat huquqi bilan mustahkam bog‘liqligidir;


b) turmush darajasini va munosib hayot kechirish shart-sharoitlarini

shakllantirishda ish bilan bandlik hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Aynan ish bilan bandlik, mehnat faolligini oshirish hozirgi vaqtda mehnatga qobiliyatli fuqarolar va ular oilalarining turmush darajasini oshirishning eng muhim kafolatidir;

v) har kimning va umuman jamiyat farovonligining negizi bo‘lgan yuqori unumli mehnatning yangi sababini shakllantirish;

g) aynan mehnat faoliyati insonni o‘zgartiradi, uning kasbiy imkoniyatlarini ochib beradi va ko‘paytiradi, shaxsning rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Iqtisodchilar ish bilan bandlikning turli shakllarini ajratadilar, ularning ayrim belgilariga qarab guruhlarga bo‘linishi 1.1-rasmda keltirilgan.



1.1-rasm. Ish bilan bandlik shakllarining tasnifi

Mehnat bozori iqtisodiy faol aholining ish bilan bandligini, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasiga jalb etilishini ta’minlaydi. U xodimning o‘zi uchun yanada mosroq ish joyiga o‘tishini yengillashtiradi. Mehnat bozori orqali korxonalar zarur miqdorda va talab qilingan sifatga ega ishchi bilan ta’minlanadi. Mehnat bozori qanday kadrlar, mutaxassislar, kasblarga talab borligini, ulardan qandaylari ortiqchaligini ko‘rsatadi. Bu ko‘pgina mamlakatlar uchun dolzarb muammodir. Uning hal etilishi jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlashga qodir bo‘lgan samarali iqtisodiyotning yaratilishini anglatadi. Mehnat bozori bozor iqtisodiyotining poydevori hisoblanadi. U o‘zining rad etib bo‘lmaydigan qonunlariga bo‘ysunishnitalab qiladi. Agar mehnat bozori qonunlari to‘laligicha amalda bo‘lsa va mehnat to‘g‘risidagi qonunlar ularning talabiga javob bera olsa,

iqtisodiyot esa turli tovar va xizmatlar bozorlari ko‘rinishida ishchi kuchini moddiy jihatdan ta’minlashga qodir bo‘lsa, u holdajamiyat farovonlik yo‘lidan boradi. Bunday jamiyatga mehnatga layoqatsizlarni va ishsizlarni o‘z qaramog‘iga olish ham unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi. Chunki ishchi tomonidan erkin tanlab olingan va uning manfaatlariga mos keladigan mehnatga asoslangan samarali tizim ishdan bo‘shatilganlarni o‘z qaramog‘iga olish va tegishli yordamlarni berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ushbu chizmada keltirilgan ish bilan bandlik shakllari bizda hozirgi vaqtda mavjud bo‘lgan ish bilan bandlik munosabatlari modelini tashkil etadi. Bu modelda ish bilan bandlikning yangi shakllari, ish bilan bandlik chegaralarining kengayishi ham, ish bilan bandlik u yoki bu shakllarining hozirgi xolatiga to‘g‘ri keladigan mazmun bilan to‘ldirilishi ham aks ettirilgan.

Mehnat bozori iqtisodiy faol aholining ish bilan bandligini, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasiga jalb etilishini ta’minlaydi. U xodimning o‘zi uchun yanada mosroq ish joyiga o‘tishini yengillashtiradi. Mehnat bozori orqali korxonalar zarur miqdorda va talab qilingan sifatga ega ishchi bilan ta’minlanadi. Mehnat bozori qanday kadrlar, mutaxassislar, kasblarga talab borligini, ulardan qandaylari ortiqchaligini ko‘rsatadi. Bu ko‘pgina mamlakatlar uchun dolzarb muammodir. Uning hal etilishi jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlashga qodir bo‘lgan samarali iqtisodiyotning yaratilishini anglatadi.

Mehnat bozori bozor iqtisodiyotining poydevori hisoblanadi. U o‘zining rad etib bo‘lmaydigan qonunlariga bo‘ysunishni talab qiladi. Agar mehnat bozori qonunlari to‘laligicha amalda bo‘lsa va mehnat to‘g‘risidagi qonunlar ularning talabiga javob bera olsa, iqtisodiyot esa turli tovar va xizmatlar bozorlari ko‘rinishida. ishchi kuchini moddiy jihatdan ta’minlashga qodir bo‘lsa, u holda jamiyat farovonlik yo‘lidan boradi. Bunday jamiyatga mehnatga layoqatsizlarni va ishsizlarni o‘z qaramog‘iga olish ham unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi. Chunki ishchi tomonidan erkin tanlab olingan va uning manfaatlariga mos keladigan mehnatga asoslangan samarali tizim ishdan bo‘shatilganlarni o‘z qaramog‘iga olish va tegishli yordamlarni berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoniga 1-ilova. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi // www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasi/ uza.uz.

3. Abdullayev A. M., Abdurahmonov O. X., Zokirova N. K. Prognozirovaniye i modelirovaniye natsionalnoy ekonomiki. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. — 575 s.

4. Abdullayev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik. — Toshkent: Mehnat, 2000.

5. Ambarsumyan A. A. Malye predpriyatiya v sisteme ekonomicheskix otnosheniy v usloviyax perexoda Uzbekistana k rynku: avtoref. dis. ... kand. ekon. nauk. — Tashkent, 1996. — 27 b.

6. Ataniyazov B. Upravleniya razvitiyem ekonomiko-ekologicheskix sistem. — Toshkent: Fan, 1998. — 124 s.

7. Berkinov B. B. Modelirovaniye sistem vedeniya selskogo xozyaystva. — Toshkent: Fan, 1991.

8. Gulyamov S. S., Dogil L. F., Semenov D. Predprinimatelstvo i malyy biznes. — Toshkent: TGEU, 1996. — S. 19–83.

9. Gulyamov S. S., Salimov B. T. Modelirovaniye ispolzovaniya i razvitiya proizvodstvennogo potensiala regiona. — Toshkent: O‘qituvchi, 1995. — 154 s.

10. Do‘stjanov T., Salayev S. Kichik biznesning katta imkoniyatlari. — Urganch: Xorazm, 1997. — 129 b.

11. Yeroxin V. Ya. Mejdunarodnoye predprinimatelstvo. — Moskva: Finansy i statistika, 2008. — 390 s.

12. Qosimova M. S., Xodiyev B. Yu., Samadov A. N., Muhitdinova U. S. Kichik biznesni boshqarish. — Toshkent: O‘qituvchi, 2003. — 239 b.

13. Maxmudov N. M. Modelirovaniye proizvodstvenno-ekonomicheskix protsessov xlopkopererabatyvayushchix otrasley: avtoref. diss. ... dok. ekon. nauk. — Toshkent: TGEU, 1993. — 36 s.

14. Muftaydinov Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari: iqtis. fan. dok. ... diss. — Toshkent: O‘zMU, 2004. — 276 b.

15. Sablikova M. S. Maly biznes v Rossii i za rubejom. — Sankt-Peterburg: SPBNIUITMO, 2014.

16. Xodiyev B. Yu. O‘zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojlanishini ekonometrik modellashtirish: iqtis. fan. dok. diss. — Toshkent: TDIU, 2000. — 338 b.

17. Krylova Ye. B. Maloye predprinimatelstvo i zanyatost naseleniya.

18. Ekonomicheskiy portal. [Elektron resurs].

19. Komarov A. G., Bogdanova S. Yu., Lichnov A. V. Malyy biznes i zanyatost v Rossii i za rubejom // Problemy teorii i praktiki predprinimatelstva. — 2011. — № 4 (40).

20. Bondyasheva A. S., Zemlyanuxina N. S. Upravleniye zanyatostyu: rol malogo biznesa v dostijenii effektivnoy zanyatosti naseleniya regiona // Izvestiya Saratovskogo universiteta. Novaya seriya. Seriya: Ekonomika. Upravleniye. Pravo. — 2016. — T. 16, vyp. 4. — S. 429–434.

21. Abduraxmonova G. K. Maly biznes v obespechenii zanyatosti naseleniya v Uzbekistane // Vestnik Rossiyskogo ekonomicheskogo universiteta im. G. V. Plexanova. — 2014. — № 12. — S. 129–136.

22. Maly biznes: shokiruyushchiye sravneniye Zapada s Rossiyey i Ukrainoy // IA «Alyans Media» po materialam Birjevoy lider. [Elektron resurs].

23. Mamedova L. Maly biznes: kto kogo spasayet? // Maloye predpriyatiye. — 1999. — № 9. — S. 11.

24. Institutsionalnaya sreda malogo predprinimatelstva i yego sotsialnye funktsii. [Elektron resurs].

25. Rol malogo biznesa v obespechenii produktivnoy zanyatosti naseleniya // Vestnik KazGU. Seriya Ekonomicheskaya. — Almaty, 2000. — № 3–4. [Elektron resurs].

26. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik: statistik to‘plam. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2017. — 113 b.

27. Shirko L. Nekotorye problemy innovatsionnoy ekonomiki. [Elektron resurs].

28. Maly biznes: zarubejnyy opyt. Gruppa kompaniy «Natsionalnyy institut sistemnyx issledovaniy problem predprinimatelstva». [Elektron resurs].

29. Xolmo‘minov Sh. R. Qishloq mehnat bozorini shakllanishi va rivojlanishini modellashtirish (Samarqand viloyati misolida): iqtis. fan. dok. diss. avtoref. — Toshkent: TDIU, 1998. — 46 b.

30. Xudayberdiyev Z. R. O‘zbekiston qishloq joylarida mehnatga layoqatli aholining mehnatda bandligi va unga kichik hamda xususiy tadbirkorlikning ta’siri: iqtis. fan. nom. ... diss. avtoref. — Toshkent, 1996. — 22 b.

31. Shepelev V. M. Ocherki teorii i praktiki razvitiya predprinimatelstva. — Toshkent: Fan, 1998. — 17 s.

32. Shodiyev T. Sh. Problemy modelirovaniya razvitiya selskogo xozyaystva (na primere Uzbekistana): diss. ... dok. ekon. nauk. — Toshkent, 1988. — 380 s.

33. G‘ulomov S. S. Tadbirkorlik va kichik biznes. — Toshkent: Sharq. — 365 b.

34. Xizrich R., Piters M. Predprinimatelstvo ili kak zavesti sobstvennoye delo i dobitsya uspexa. — Moskva, 1993. — S. 26.

35. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. — Moskva, 1982. — S. 159.

36. Shaxmalov F. I. Vzaimodeystviye predprinimatelskix i vlastnyx struktur: voprosy teorii i praktiki: avtoreferat dissertatsii doktora ekonomicheskix nauk. — Sankt-Peterburg, 1998. — S. 34.

37. Muxin Yu. S. Predprinimatelstvo v rynochnom xozyaystve: regionalnye aspekty yego regulirovaniya.

38. Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari: darslik. — Toshkent: O‘zbekiston, 1999.

39. Xodiyev B. Yu., Qosimova M. S., Samadov A. N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: TDIU, 2010.

40. Gafurov U. V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqtis. fan. dok. diss. — Toshkent, 2017. — 309 b.

41. Umarov I. Yu. Puti povysheniya effektivnosti predprinimatelskoy deyatelnosti v povyshenii konkurentosposobnosti predpriyatiy pishchevoy promyshlennosti // Regionalnye problemy preobrazovaniya ekonomiki. — 2019. — № 1 (99).

42. O‘lmasov A., Sharifxo‘jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. — Toshkent: Mehnat, 1995. — 192 b.

43. Abulqosimov P., Qulmatov A. Tadbirkorlik sermashaqqat faoliyat // Iqtisod va hisobot. — 1997. — № 9. — 9 b.

44. Tolametova Z. A., Qulmatov A. A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish — yangi ish joylarini yaratishning muhim omili sifatida // Iqtisod va moliya. — 2015. — № 2. — 12 b.

45. Yuldashev A. A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2017. — № 4. — 9 b.

46. Aktamova N. R. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini baholashning holati va tahlili // Xalqaro moliya va hisob. — 2016. — № 3. — 9 b.

47. Karimova K., Sharifxodjayeva K. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiy tayanchi // Xalqaro moliya va hisob. — 2017. — № 1.

48. Kersten R., Harms J., Liket K., Maas K. Small firms, large impact? A systematic review of the SME finance literature // World Development. — 2017. —

Vol. 97. — P. 330–348. DOI: 10.1016/j.worlddev.2017.04.012.

49. Ergashev I. I. Development of small business and private entrepreneurship: factors affecting the efficiency of spent investment and their characteristics // Zamonaviy fan, ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari. Electronic Journal of Actual Problems of Modern Science, Education and Training. — 2020. — December. — P. 176–181.

50. Ergashev I. I. Increasing innovation potential and investment activity in the development of effective entrepreneurship // Economic Archive. — 2018. — Issue 4. — ISSN: 2367-9301.

51. Турғунмирзаев А. Новые проявления конкуренции в сфере страховых услуг: теория и практика // Экономическое развитие и анализ. — 2025. — Vol. 3, № 2. — P. 368–376.

52. Турғунмирзаев А. Цифровизация страхового рынка как фактор повышения его конкурентоспособности // Передовая экономика и педагогические технологии. — 2025. — Vol. 2, № 1. — P. 289–297.

53. Тургунимирзаев А. Направления стратегии развития страховых компаний в цифровой экономике // Экономическое развитие и анализ. — 2025. — Vol. 3, № 1. — P. 439–446.

54. Турғунмирзаев А., Шамситдинов М. Суғурта компаниялари рақобатбардошлигини бошқаришда рақамли иқтисодиётнинг ўрни // Nashrlar. — 2023. — P. 238–241.

55. Turgunmirzaev A. Developing Forms of Competition in the Insurance Field: Theory and Practical Aspects // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. — 2025. — Vol. 6, № 3. — P. 1083–1090.